

## Alisher Navoiy Dostonlarini O'rganishda Qiyosiy-Tipologik Metodning O'rni

Raxmanova Nafisa Azatbekovna<sup>1</sup>

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada qiyosiy-tipologik metodning tarixi, tipologik o'xshashliklarning turlari haqida ma'lumot beriladi. A.Navoiy asarlarini Shekspir asarlari bilan qiyosiy o'rgangan o'zbek olimlarining tadqiqotlari misolida "Xamsa" dostonlarini o'rganishda qiyosiy - tipologik metodning o'rni va ahamiyati ko'rsatilgan.

**Kalit so'zlar:** qiyosiy metod, qiyosiy-tipologik metod, Navoiy, Shekspir, doston, tragediya.

### KIRISH

Muayyan bir adabiyotning jahon adabiyoti tarixida tutgan o'rmini belgilashda qiyosiy metodning ahamiyati katta. Bu metod bilan konkret asarni o'tmishda yoki u bilan bir paytda, o'zi mansub bo'lgan adabiyotda yoki boshqa milliy adabiyotda yaratilgan asar bilan qiyoslab, taqqoslab, chog'ishtirib o'rganish mumkin.

### ADABIYOTLAR TAHЛИLI VA METODOLOGIYA

Qiyosiy-tarixiy metod dastlab Germaniyada shakllana boshlagan. Hind –yevropa xalqlari og'zaki ijod namunalarini qiyosiy tahlil qilib, ular o'rtasidagi o'xshashliklar genezisini tadqiq qilgan aka-uka Grimmilar, "Panchtantra"ning nemis tilidagi tarjimasiga so'zboshi yozgan Teodor Banfey qarashlaridan boshlangan bu metod tez orada butun Yevropaga yoyiladi. Rus olimi A.N. Veselovskiy (1839-1906) adabiy asarlar tahlilida ijtimoiy-iqtisodiy sharoitni birinchi o'ringa qo'ydi, folklor yoki Sharq va G'arb yozma adabiyotidagi o'xshashliklarni bitta manba (genезис)ga yoxud "sayyor sujetlar"ga bog'lash unchalik to'g'ri emas, degan fikrni ilgari surdi. Olimning fikricha, yashash tarzi va odatlarning o'xshashligi, bir maromda psixik rivojlanish mazmun yoki shakl jihatdan o'xshash asarlarning dunyoga kelishiga sabab bo'ladi.

Qiyosiy adabiyotshunoslik rivojida akademik V.M.Jirmunskiy (1891-1871) ning xizmatlari ham beqiyos. Olim qiyosiy adabiyotshunoslikka bag'ishlangan qator ilmiy asarlarida tarixiy-adabiy jarayonning o'xshashligi jamiyatning ijtimoiy-tarixiy rivojlanishi bilan bog'liq ekanligini asoslab berdi. "Alisher Navoiy va Sharq adabiyotida Renessans muammosi" maqolasida shoir ijodini unga zamondosh Sharq va G'arb shoirlari ijodi bilan qiyosiy o'rganib, bir qator o'xshash (tipologik) nuqtalarini aniqladi. Mashhur sharqshunos olim N.I.Konrad (1891-1970) ham qiyosiy-tarixiy va qiyosiy tipologik metodlardan foydalanib, Renessans faqat G'arb adabiyotiga tegishli emasligi, bu tarixiy hodisa Sharqda ham ro'y bergenini va Navoiy barcha xalqlar shoiri ekanligini isbotlab berdi.

### NATIJALAR

Ma'lumki, qiyoslash deganda to'rt xil vaziyat nazarda tutiladi:

1. Bir makon va zamonda mavjud bo'lgan adabiy voqeа hodisalarini qiyoslash.
2. Bir makon, lekin har xil zamondagi adabiy hodisalarini qiyoslash.
3. Bir zamon, lekin har xil makonda mavjud bo'lgan obyektlarni qiyoslash.
4. Har xil makon va zamon adabiy hodisalarini qiyoslash .

Mana shu jarayonlar qiyosiy adabiyotshunoslikda qiyosiy-tarixiy va qiyosiy tipologik metodlar yordamida o'rganiladi. Afsuski, adabiyot ta'limida badiiy asar tahlili jarayonida ko'pincha bu ikki metodni farqlamaslik, bitta umumiy nom bilan atash holatlari kuzatiladi.

<sup>1</sup> Chirchiq davlat pedagogika universiteti o'qituvchisi, O'zbekiston



Tilshunos olim R.Rasulov ilmiy xulosalariga ko‘ra, tilshunoslikda chog‘ishtirish metodi ikki va undan ortiq qarindosh yoki qarindosh bo‘lmagan tillarni, til hodisalarini o‘zaro qiyoslash usuli bo‘lib, ushu xususiyatga ko‘ra faqat qarindosh tillarni taqqoslab, qiyoslab o‘rganadigan qiyosiy-tarixiy metoddan farq qiladi. Shuningdek, qiyosiy-tarixiy metoddan farqli ravishda, chog‘ishtirilayotgan tillarning tarixiga, ularning kelib chiqishiga — genetik jihatlariga, taraqqiyotiga e’tibor bermaydi, ularga asoslanmaydi. Bu nazariy fikrlarni adabiyotga tatbiq qilsak, tahlil bir millat yoki bir hudud adabiyoti doirasida olib borilsa, adabiy hodisalarning genetik jihatlariga e’tibor qaratilsa, bunda qiyosiy-tarixiy metoddan; qarindosh bo‘lmagan turli millatga mansub adabiyotlar tadqiqi va tahlili asosida u yoki bu adabiy hodisalarning o‘xhash va farqli xususiyatlari ochib berilsa, qiyosiy-tipologik chog‘ishtirma metoddan foydalaniladi. [5,263]

Demak, qiyosiy-tipologik metod deganda o‘xhash vositalarga ega bo‘lgan, lekin kelib chiqishiga ko‘ra bir-biri bilan bog‘liq bo‘lmagan hodisalar tahlili haqida so‘z boradi. Zotan, tipologiya - genetik jihatdan o‘zaro bog‘lanmagan, tili va tarixi, madaniyati tamomila farq qiladigan xalqlar adabiyotida mushtarak jihatlarni anglashga yordam beradigan komparativistik tushuncha hisoblanadi. Adabiy hodisalarni tipologik jihatdan o‘rganish jahon adabiyotida kechayotgan umumiy jarayonlarni anglab yetishda muhim rol o‘ynaydi. Slovak olimi D.Dyrishin adabiyotni tipologik o‘rganish yo‘nalishining jahondagi eng yirik mutaxassisini hisoblanadi. Olimning ta’kidlashicha, tipologik tahlil adabiyotshunoslilikning muhim masalalaridan biri bo‘lib, uning vazifasi adabiy ta’sirning mohiyatini aniqlashdir. D.Dyrishin tipologik o‘xhashliklarni uch turga ajratib o‘rganishni tavsiya etadi:

1. Ijtimoiy-tipologik o‘xhashliklar (ijtimoiy shart-sharoitlarning asarning g’oyaviy-falsafiy mazmunida aks etishi).
2. Adabiy-tipologik o‘xhashliklar (badiiy asarlardagi o‘xhash va farqli belgilarni adabiy yo‘nalish, janr, kompozitsiya, sujet, obrazlar tizimi, motivlar, tasviriy vositalar, g’oyaviy-psixologik yondashuvlar singari badiiylikni ta’minlovchi komponentlar nuqtayi nazaridan o‘rganish).
3. Psixologik-tipologik o‘xhashliklar (qiyoslanayotgan mualliflarning ruhiy yaqinligi va ma’lum bir janrda ijod qilishga individual-psixologik moyilligi).[7, 47-48]

## MUHOKAMA

O‘zbek adabiyotshunoslida qiyosiy-tipologik metoddan foydalanib ilmiy asar yozishni A.Fitrat boshlab bergan. N.Tirova, A.Qosimov, B.Xoliqov, Z.Qobilova, G.Xalliyeva, Suvon Meli, Uzoq Jo‘raqulov, X.A.Mamatqulovalarning tipologik tahlilga asoslangan ilmiy tadqiqotlaridan adabiyot ta’limida foydalanish talabalarning jahon adabiyotiga qiziqishini yanada orttirishga, kitobxonlik saviyasini o‘stirishga xizmat qilgan bo‘lar edi.

O‘zbek adabiyotshunoslida “Xamsa” dostonlari asosida milliy adabiyotlar o‘rtasidagi mushtarak an‘analarni o‘rganish ishlari o‘tgan asrning 90-yillaridan tizimli amalga oshirila boshladi. Shubhasiz, Xolida Mamatqulovaning “A.Navoiy va Uilyam Shekspir ijodida badiiy tamoyillar mushtarakligi va o‘ziga xoslik (“Layli va Majnun” dostoni hamda Shekspirning “Romeo va Julietta” tragediyasi misoldida)” mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasi Sharq uyg‘onish davri va G‘arb uyg‘inish davri mutafakkirlarining ishq va inson kamoloti mavzusiga munosabatini qiyosiy o‘rganishda mutaxassislар va talabalarga muhim ilmiy metodologik manba hisoblanadi. Ilmiy ishda har ikki asardagi sujet qurilishi, bosh va ikkinchi darajali obrazlar talqini, badiiy yechimdagи o‘zga xosliklar muayyan darajada o‘rganilgan.

Ma’lumki, Alisher Navoiy va Shekspir asarlarini ishq konsepsiysi nuqtayi nazaridan qiyoslashni Y.E.Bertels boshlab bergan. N.I.Konrad Navoiyning “Layli va Majnun” asaridagi ayrim lavhalarni G‘arb adabiyotidagi Tristan va Izolda, Usta va Margarita bilan qiyoslagan bo‘lsa, V.M.Jirmunskiy Navoiy qarashlarini Dante, Leonardo da Vinci, Petrarka qarashlari bilan taqqoslagan edi.

Olima ikki asarni qiyosiy-tipologik usulda o‘rganib, quyidagi o‘xhashliklarni qayd etadi:

1. Ilk uchrashuv.
2. Dil izhori.



3. Ayriliq.
4. Istamagan kishi bilan nikohga majburlash.
5. Xotima; a) ikkala asarda qahramonlar halok bo'ladilar; b) har ikkala sevishganlar qabrdagi bir-birlariga abadiy qovushadilar.

Shuningdek, qahramonlar dunyodagi eng qudratli ma'naviy kuch deb muhabbatni bilishadi. Har ikkala shoir real dunyo go'zalliklari orasida ishqni go'zallikning bosh manbayi deb qaraydilar. Ikkala mutafakkir nuqtayi nazarida komillikning muhtasham poydevori ham, oly cho'qqisi va so'nmas nur manbayi ham ishqdir X.Mamatqulovaning ta'kidlashicha, Navoiy va Shekspir ilgari surgan g'oyalari mushtarakligi sabablari adabiy aloqalar va uslublar ta'siriga emas, balki asarlar yaratilgan davr muammolari, kayfiyati va ularni badiiy aks ettirishdagi yozuvchi iste'dodi, tafakkuri imkoniyatlariga borib taqaladi. [4, 24-49]

Suvon Melining "Ikki toifa ishq: "Layli va Majnun", "Romeo va Julyetta" nomli maqolasida A.Navoiyning mashhur dostoni Uilyam Shekspir tragediyasi bilan sujet, obraz, badiiy pafos, ulardagi ishq konsepsiyasining o'ziga xosligi nuqtayi nazaridan qiyosiy-tipologik tadqiq etilgan. Olim ikki asarning ulardagi yetakchi g'oya – ishq nuqtayi nazaridan qator mushtaraklikka ega ekanligini qayd etib, tafovutlarni ham ko'rsatib o'tadi:

1. "Romeo va Julyetta"da majoziy ishq va avom ishq; "Layli va Majnun"da esa ilohiy ishq va xavoss ishq amalda ekani kuzatiladi.
2. G'arb va Sharqdagi jtimoyi – ma'rifiy va ruhoniyligi holat: birida diniy e'tiqod susaygan, ikinchisida Islom dini sobit.
3. "Layli va Majnun"da ishqning mukammal irfoniy talqin etilishi tasavvuf tufaylidir.

Suvon Meli "Nega Romeo va Julyettaning sevgi tarixi olamdagagi eng g'amgin qissa?" degan savolga atroflicha javob beradi: Yevropa Renessansi asosan dunyoviy xarakterga ega bo'lib, u o'zidan oldingi O'rta asrlarning diniy bosimini rad etib shakllangan dunyoqarash edi. Dinni rad etib Yevropa katta taraqqiyotga erishdi, lekin juda ko'p narsani yo'qotdi ham. Shekspirning asari ikki yosh qalbning tanazzul qissasidir. Ularni jismoniy maylga qizg'in berilishlari, ya'ni avom ishq halok qiladi. Go'yoki buyuk dramaturg insoniyatni sevgida quruq ehtirosga, nafsoniy maylga berilish halokatli ekanidan ogohlantiradi.

"Nafs maqsadida oshiq bo'lганlar uchun oshiqlik haromdir", -deydi Navoiy. Qays va Layli muhabbatining oly darajadagi balandligi bu sevgining samimiyyati va pokizaligidadir. Mana shu fazilat tufayli ishq majoziy ishq ilohiy darajasiga ko'tariladi. [6, 45-61]

Sobit Avezov "Farhod va Hamlet obrazlarining qiyosiy tahlili" maqolasida Navoiyning Farhodi va Shekspirning Hamletini qiyosiy-tipologik tahlil qilib, ularning muhabbati, kurashi va jasorati o'rtasidagi o'xshashlik va farqli xususiyatlar haqida o'z fikr-mulohazasini bayon etadi. Farhod va Shirin, Farhod va Shopur, Farhod va Xusrav munosabatlarini Hamlet va Ofeliya, Hamlet va Xoratsio, Hamlet va Klavdiy munosabatlariga qiyoslab, bu obrazlarning o'xshash tomonlari ko'pligini ta'kidlaydi. [1, 270-274]

Komiljon Hamroyevning "Saddi Iskandariy va "Hamlet"da "bilib qolish" motivi" maqolasida Alisher Navoiyning "Saddi Iskandariy" dostoni va Uilyam Shekspirning "Hamlet" tragediyasi ayrim mushtarak jihatlariga ko'ra tahlilga tortilgan. "Bilib qolish" motivi orqali bosh qahramonlarning poetik tasviri qiyosiy-tipologik aspektida o'rganilgan. Sujet, obraz, detal va motiv kabi poetik komponentlarning tipologik va o'ziga xos jihatlari tadqiq etilgan. Har ikkala asarda qahramon obrazidagi ma'rifat konsepsiysi tragik tasvir fonida ifoda etiladi. "Bilib qolish" motivi qahramonlarning ma'nani yuksalishi va poklanishiga zamin yaratadi, hayot haqiqati, o'lim hikmati, ikki dunyo saodati hamda yaratgan ma'rifatini anglashida poetik ochqich vazifasini bajaradi. Muallif ikki asarning mushtarak tomonlari sifatida quyidagilarni ta'kidlaydi:

1. Asar ibtidosida Iskandar va Hamlet shahzoda sifatida kamol topadilar va qirol o'limi tufayli chuqr qayg'uga botadilar.



2. Og'ir judolik tufayli qayg'uga botgan shahzodalar otalarining vasiyatlari orqali o'zlarini o'nglaydilar, yelkalaridagi missiyani bajarishga kirishadilar.
3. O'z missiyasini anglagan Iskandar va Hamlet jamiyatdagi mavjud turg'unlikka qarshi isyon qiladilar. Iskandar xalq manfaatini ko'zlab ijtimoiy, madaniy va ma'rifiy sohalarda islohotlar o'tkazadi. Hamlet esa telba qiyofasida butun qirollikdagi nohaqlikka qarshi chiqadi. Iskandarning donoligi uni jahon shohiga aylantirsa, Hamletning donoligi - telbaligi uni rejissorga aylantiradi.
4. "Bilib qolish" motivi: Iskandar kabutarlar jangi, Hamlet esa Angliya qirolligiga yo'llangan maxfiy xat orqali dushmanlarining hiylalari va ojiz tomonlarini bilib qoladilar.[3, 225-237]

I.A.Ismoilovning "Alisher Navoiy "Saddi Iskandariy" dostonining qiyosiy tahlili" nomli dissertatsiyasida "Saddi Iskandariy" va "Iskandarnoma" dostonlarini qiyoslash orqali Navoiy ijodining orginalligi va jahon adabiyoti rivojidagi munosib o'rni va ahamiyati ilmiy-nazariy asoslab berildi.[2]

## XULOSA

A.Navoiyning "Xamsa" dostonlarini qiyosiy-tipologik metod bilan o'rganishga bag'ishlangan bu tadqiqotlar adabiyotshunoslik uchun yangi ilmiy-nazariy ma'lumotlar beradi, yanglish talqinlarni isloh etadi. Bu sohadagi ilmiy yangiliklarni "O'zbek adabiyoti tarixi", "Navoiyshunoslik", "Adabiy tahlil asoslari" va "Adabiyot nazariyasi" darslariga joriy etish, shubhasiz, talabalarning kreativ fikrlashini o'stiradi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Avezov Suhrob. Farhod va Hamlet obrazlarining qiyosiy tadqiqi. "SHARQ-U G'ARB RENESSANS ADABIYOTI: NAVOIY VA SHEKSPIR" mavzuidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari 2022- yil, 22-iyun, 270-275 –b.
2. Ismoilov I.A. "Alisher Navoiy "Saddi Iskandariy" dostonining qiyosiy tahlili" Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун ёзилган ДИССЕРТАЦИЯ. Т.:2019
3. Hamroyev Komiljon."Saddi Iskandariy va "Hamlet"da "bilib qolish" motivi". "SHARQ-U G'ARB RENESSANS ADABIYOTI: NAVOIY VA SHEKSPIR" mavzuidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari 2022- yil, 22-iyun, 225-237 – b.
4. Маматқулова Х.А. Алишер Навоий ва Вильям Шекспир ижодида баддий тамойиллар муштараклиги ва ўзига хослик («Лайли ва Мажнун» достони ҳамда «Ромео ва Жульетта» трагедияси мисолида). Филол. фан. номз... дисс. – Тошкент, 2009. – Б.24 – 49.
5. Paculov P. Умумий тилшунослик. – Т.: 2017.Б.263
6. Suvon Meli, Ikki toifa ishq: "Layli va Majnun", "Romeo va Julyetta". "SHARQ-U G'ARB RENESSANS ADABIYOTI: NAVOIY VA SHEKSPIR" mavzuidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari 2022- yil, 22-iyun, 45-61 – b.
7. Xalliyeva Gulnoz., Qiyosiy adabiyotshunoslik.-T.: Akademnashr.2020, 149 bet.
8. Xalliyeva G.I. Qiyosiy tahlil metodologiyasi.- Scientific-methodological electronic journal "Foreign Languages in Uzbekistan", 2022, No 1 (42),180-189. <https://journal.fledu.uz>

